UO‘K 1.008.297(575.1)

“FAOL IJTIMOIY POZITSIYA” TUSHUNCHASINING MOHIYATI XUSUSIDA

S.S. Sodiqov

Maqolada “pozitsiya”, “hayotiy pozitsiya”, “ijtimoiy pozitsiya”, “faol pozitsiya” kabi tushunchalarning mohiyati va bugungi kundagi ijtimoiy ahamiyati o‘rganilgan. Yangi O‘zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyatini barpo etish, huquqiy demokratik davlat qurish va modernizatsiya jarayonida yoshlarda faol ijtimoiy pozitsiyaning roli ochib berilgan. Faol ijtimoiy pozitsiya zamonaviy yoshlar ongining shakllanishida muhim omil sifatida tahlil etilib, unda yoshlarning innovatsiyalarga intilishi, intellektual salohiyati yuksalishining ahamiyati ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *pozitsiya, hayotiy pozitsiya, ijtimoiy pozitsiya, faol pozitsiya, yoshlar faol pozitsiyasi, axloqiy qiyofa*.

В статье исследуются сущность и социальная значимость таких понятий, как “позиция”, “жизненная позиция”, “социальная позиция”, “активная позиция”, раскрывается роль активной социальной позиции молодежи в процессе построения гражданского общества, строительства правового демократического государства и его модернизации в условиях Нового Узбекистана. Анализируется активная социальная позиция как важный фактор формирования сознания современной молодежи, рассматривается значение стремления молодежи к инновациям и её интеллектуального потенциала.

Ключевые слова: *позиция, жизненная позиция, социальная позиция, активная позиция, активная позиция молодежи, нравственный облик.*

So‘nggi vaqtlarda falsafiy adabiyotlarda “pozitsiya”, “hayotiy pozitsiya”, “ijtimoiy pozitsiya” va “faol pozitsiya” kabi tushunchalar ko‘plab uchramoqda. Bu tushunchalarning umumiy ma’nosi shaxsning hayotda ma’lum maqsadlarga qaratilgan, ularning asosida turgan ehtiyojlarining qondirilishini ta’minlaydigan ijtimoiy jarayonlardagi o‘rni, ularga munosabati hamda bu jarayondagi xatti-harakatlarini anglatadi. Har qanday jamiyatning taraqqiyotida, yoshidan, kasbidan hamda ijtimoiy hayotda egallab turgan o‘rnidan qat’i nazar, uning a’zolarining ijtimoiy hayotga, unda amalga oshayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’naviy faoliyati va bu sohalardagi jarayonlarga munosabati, undagi roli, jamiyat va o‘z taraqqiyoti yo‘lida egallab turgan pozitsiyasi muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi bir vaqtning o‘zida bir qancha ijtimoiy muammolarni hal etishni talab etmoqda. Shunday muammolardan biri yoshlarni shunchaki tarbiyalash emas, ularda faol axloqiy pozitsiyani shakllantirishdan iborat. Shaxsning ijtimoiy pozitsiyasi uning jamiyatdagi o‘rni, turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi ishtiroki hamda bu jarayonda faollik darajasi jamiyatda amalga oshayotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari, modernizasiya, turli innovatsiyalarning kirib kelishi kabi ijtimoiy jarayonlarning mohiyatiga ta’sir etadi. Bunda shaxsning onglilik darajasi, ijtimoiy ongi, motivlari, qadriyatlari, maqsadlari, ehtiyojlari kabi unsurlar (elementlar) ishtirok etadi. Ular shaxs yashayotgan va faoliyat olib borayotgan hayotiy sharoitlarga aloqador bo‘lib, uni biron bir maqsad tomon yetaklaydi.

Ijtimoiy hayotdagi va shaxsiy hayotdagi o‘zgarishlar doim ham yoshlar ongidagi oddiy turmush tasavvurlariga mos kelavermaydi. Bundan kelib chiqadiki, ijtimoiy fanlar, ayniqsa falsafiy fanlar oldida shunchaki yoshlar pozitsiyasini, dunyoqarashini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni amalga oshirishgina emas, ularda jamiyatda amalga oshib borayotgan ijtimoiy jarayonlarga nisbatan mustaqil, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish muammosi ham

yuzaga keldi. Bunday faol pozitsiyaning shakllanishi islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda yoshlarning faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan muhim amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo'lgan muammolardan hisoblanadi. Bunday pozitsiya insonning hayotiy imkoniyatlarini aniqlab beradi va uning asosida salohiyatini, nimalarga qodir ekanligini, qobiliyatini yuzaga chiqaradi. Bu muammo dolzarb, chunki mamlakatda islohotlar va modernizatsiyaning chuqurlashib borishi, demokratik huquqiy jamiyat qurish jarayoni unga mos ravishda jamiyat a'zolarining amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklarga munosabati, ularni qo'llab-quvvatlashi, o'z hayotida egallab turgan pozitsiyasi orqali munosabati muhim ahamiyatga ega. Chunki subyektiv omilning qayd etilgan jarayonlarga munosabati amalga oshirilayotgan ishlarning pirovard natijasini belgilaydi. Albatta, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar doim ham jamiyat a'zolarining, ayniqsa yoshlarning tasavvurlari, orzu-umidlari, ideallariga mos tushavermaydi. Bundan kelib chiqib, jamiyat oldida shunchaki yoshlarni tarbiyalash emas, islohotlar, modernizatsiya, innovatsiyalar davrida ayni davr ruhiga mos keladigan dunyoqarash, axloqiy tamoyillar, ideallar, qadriyatlar va to'g'ri munosabatni shakllantirish vazifasi turibdi.

Ma'lumki, yoshlar mamlakatimiz aholisining oltmish foizini tashkil etadi, jamiyatning yirik ijtimoiy qatlami sifatida uning taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Yoshlar – O'zbekistonning kelajagi va istiqboli. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz yoshlar siymosida umrimiz mazmunini, hayotimizning asosiy samarasini ko'ramiz. Yangi O'zbekistonni azmu shijoatli yoshlar bilan birga bunyod etamiz!

Bizning taraqqiyot strategiyamizda har jihatdan barkamol rivojlangan, erkin fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlarga ega yigit-qizlarni tarbiyalash eng ustuvor vazifalarimizdan biridir" [1. B. 262].

Yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy pozitsiyasini ilmiy-falsafiy tahlil qilish nazariygina emas, amaliy ahamiyatga ham ega. Bu nuqtayi nazardan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy pozitsiyasini o'rganishning ilmiy asoslariga e'tibor qaratgan holda uning xususiyatlari, determinantlari va omillarini ham o'rganish zarur. Bu borada eng avval nazarda tutish zarur bo'lgan jihatlardan biri yoshlarning ijtimoiy o'ziga xosliklari, jumladan, psixologiyasi, ma'naviyati, ba'zan hayotiy tajribasining kamligi hisobiga hayot, turmush tarzi, yashash haqida aniq tasavvurlarga ega emasligi, ko'pgina muammolarni hal qilishda shoshma-shosharlik qilishlari kabilar yoshlar pozitsiyasi masalasiga ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab etadi.

Faylasuf olim Q.Nazarovning fikricha, "Yoshlar ma'naviy dunyoqarashi shakllanayotgan, qaror topayotgan, asosiy ijtimoiy o'sishni, intensiv ijtimoiylashuv va moslashuvni, ijtimoiy va ruhiy fiziologik balog'at yoshni boshdan kechirayotgan ijtimoiy demografik guruhdir. Yoshlarning alohida ijtimoiy-ruhiy qiyofasi jamiyatning umumiy holati, ijtimoiylashuv qonuniyatlari, ta'lim-tarbiya imkoniyatlari bilan belgilanadi" [2. B. 353].

O'zbekiston prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan Yangi O'zbekistonni yaratish konsepsiyasi taklif etilishi mamlakatimiz taraqqiyotining istiqbollarini belgilab berdi. Albatta, Yangi O'zbekiston jamiyatini taraqqiy ettirish vazifasi yoshlar faol pozitsiyasining shakllanishini taqozo etadi. Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida mamlakatimiz yoshlarini Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash, ilm-fan va innovatsiyalarga ularni keng jalb qilish, yoshlarni "Yangi O'zbekiston –Uchinchi Renessans sari!" shiori ostida birlashtirish kabi muammolarni hal etish maqsadida bu borada tizimli va samarali chora-tadbirlarni tashkil etish vazifasi qo'yilgan [1. B. 260].

Yuqorida prezidentimiz tomonidan qo'yilgan vazifani bajarish mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini muntazam, tizimli ravishda amalga oshirib borish orqali mazkur siyosatni yangi bosqichga ko'tarishni talab etadi. Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi bir paytning o'zida bir necha muammolarni baravar hal etishni talab etmoqda. Yoshlarni tarbiyalash, ularda Yangi O'zbekiston jamiyatiga mos keluvchi axloqiy qiyofani, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish kun tartibida turgan dolzarb muammoga aylandi. Axloqshunoslik nazariyalariga ko'ra, ma'naviy qiyofani insonning hayoti, odobi, xatti-harakatlari, faoliyati, axloqiy me'yorlari va axloqiy tamoyillarining majmuasi sifatida qarash mumkin. Har bir milliy ijtimoiy

taraqqiyot bosqichi jamiyat a’zolari oldiga davr ruhiga va talablariga mos bo‘lgan ma’naviy-axloqiy qiyofani shakllantirish vazifasini qo‘yadi. Bu nuqtayi nazardan ma’naviy-axloqiy qiyofa ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyotining asosiy tendensiyalarini, maqsad va vazifalarini, ehtiyojlarini hamda oriyentatsiyasini ifoda etadi. U bunday sifatda tarixiy hodisa hisoblanadi. Axloq ijtimoiy ongning shakllaridan biri hisoblansa, ma’naviy-axloqiy qiyofa axloqning tarkibiy qismi sanaladi. Ma’naviy-axloqiy qiyofani shakllantirish unga muvofiq bo‘lgan tizim, struktura, iqtisodiy munosabatlar jarayoni bilan bog‘liq.

Ma’naviy-axloqiy qiyofaning xususiyatlariga e’tibor qaratamiz. Ma’naviy-axloqiy qiyofa markazida uni tashuvchisining pozitsiyasi turadi. Bu jarayon shaxsning hayotiy munosabatlarda faol ishtirokini talab etadi. Demak, bu holat faol hayotiy jarayon sifatida ta’riflanishi mumkin. Bu jarayon jamiyat taraqqiyoti uchun obyektiv zarurat hisoblanadi. Faol ijtimoiy pozitsiya yoshlardan ma’naviyatning muhim elementlari bo‘lgan vatanparvarlik, sadoqat, burch, vijdon, qonunga itoat, mas’uliyatni anglash, jamiyatda yuz beradigan salbiy ijtimoiy hodisalarga nisbatan murosasizlik kabi axloqiy xususiyatlarga ham ega bo‘lishni talab etadi.

Faol hayotiy munosabat – yoshlar ongini shakllantirishda asosiy omil, shu bois aynan ana shu axloqiy sifatni shakllantirish zarur bo‘ladi. Ijtimoiy ma’nodagi faollikni iqtisodiy munosabatlar tizimining o‘zida shakllantirish mumkin. Uni sekin-asta axloqiy tamoyil darajasigacha ko‘tarish, muayyan ijtimoiy-siyosiy muhitda axloqiy qiyofa tizimiga aylantirishga erishish mumkin.

Hozirgi kunda nafaqat iqtisod, balki tashqi va ichki siyosat sohasida ham ulkan modernizatsiya jarayonlari amalga oshib bormoqda. O‘zbekiston Markaziy Osiyo siyosiy makonidagina emas, dunyo miqyosida ham ijtimoiy-siyosiy mavqeyining yuksalib borishiga erishmoqda. Jamiyatda amalga oshib borayotgan demokratiya, liberalizatsiya va oshkoralik jarayonlari, tanqid va o‘z-o‘zini tanqid muhiti yoshlarning fikrlarini ochiq ayta olishiga, ularda demokratik dunyoqarash va siyosiy ongning rivojlanishi, yetuk va faol bo‘lishiga katta imkoniyatlar yaratmoqda. Mazkur jarayonlar insonning ijtimoiylashuviga ta’sir etadi.

Insonning ijtimoiylashuvi muammosiga oid turli yondashuvlar mavjud. Inson falsafasiga oid ko‘plab asarlar yozgan rossiyalik olim F.Minyushev fikricha, inson ijtimoiylashuvi uning ehtiyojlari qondirilishi muammosi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda insonlar o‘zaro munosabatlarga kirishadilar va ehtiyojlarini qondirishga birgalikda harakat qiladilar [3]. T.Parsonsning fikricha, insonlarning ijtimoiylashuvi jarayonida madaniyat muhiti muhim bo‘lib, unda yoshlar o‘zaro madaniy, ma’naviy, axloqiy va boshqa munosabatlar ta’sirida bo‘ladilar. Bunda madaniyat, madaniy meros, qadriyatlar, an’analar, axloq qoidalari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular jamiyat a’zolari, xususan, yoshlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi [4. B. 458].

Ijtimoiy guruh sifatida yoshlarning o‘ziga xosligi yuqorida qayd etildi. Buni hisobga olgan holda ularning faolligi, xatti-harakatlari, intilishlarini, ijtimoiy faolligini to‘g‘ri yo‘naltirish, salohiyatini yuzaga chiqarish hamda undan foydalanish uchun imkoniyatlar yaratilishi zarur. Jamiyatning mas’uliyatli a’zolari, ziyolilar, siyosatchilar va yoshlar faoliyatiga aloqador bo‘lgan tegishli tashkilotlar bu jarayonning muntazamligi va izchilligini ta’minlab berishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning iqtisodiy sohadagina emas, ma’naviy sohada ham faollik muhiti axloqni yaqin o‘tmishgacha mavjud bo‘lmagan jihatlar bilan to‘ldirib, asta-sekin ijtimoiy faollikning ko‘nikmalari va yangi tajriba unsurlarini o‘zlashtirish orqali boyitadi. Bu borada yoshlarning yangicha ma’naviy-axloqiy qiyofasi, faol pozitsiyasining shakllanishi uchun birlamchi asos bo‘ladigan bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik, oilaviy xususiy tadbirkorlik kuchlarining bir paytda rivojlanishi bilan erishish mumkin. Shuning uchun yoshlar intellektual salohiyatini muntazam yuksalib borishiga erishish, ularda innovatsiyalarga intilish, innovatsion ongni shakllantirish, ularning malakasini oshirish bu borada muhim ahamiyat kasb etib boradi. Buning uchun prezidentimiz ta’kidlaganidek, “... yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunarlar, raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini puxta egallashlari uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta’minlash jarayonlariga ko‘maklashishni yangi bosqichga ko‘tarishga erishish” zarur [1. B. 261]. Jamiyatda barqaror iqtisodiyotni ta’minlash orqali iqtisodiy islohotlar samaradorligiga erishish, xususiy biznesni rivojlantirish orqali

yangi ish o‘rinlarini yaratish, raqobatbardoshlik muhitini shakllantirish yoshlarning faol pozitsiyasini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Halol mehnat, xususiy tadbirkorlik, kichik biznesning yoshlar ko‘zida mavqeyini ko‘tarish, bunday muhim xususiyatlarni yoshlarning ongida va hayotida aks etayotgan qadriyatlar tizimidan joy olib, muhim qadriyatlarga aylanishini ta’minlashga erishish, aksiologik ongida moddiy boyliklar yetakchi o‘ringa chiqib qolishining oldini olish orqali ijtimoiy faollikning nufuzini oshirishga erishish mumkin.

Yuksak axloqiylik va yuqori ma’naviyat yuksak milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida, oliy maqsadlarga intilish orqali shakllanadi. Bu borada yoshlarda yuksak axloqiylik va madaniyatning mos kelishi, ular tomonidan davr talablari va ehtiyojlarini to‘g‘ri anglab yetilishi, vatanimiz oldida turgan vazifalarning idrok etilishi asosida o‘z faol ijtimoiy pozitsiyasini belgilab olishi jamiyat kelajagini ta’minlovchi muhim ijtimoiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonda 14-30 yoshgacha yoshlar soni 10 millionga yaqin. Ularni talaba yoshlar, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanayotgan yoshlar, oliy ma’lumotli yoshlar, ish bilan ta’minlanmagan yoshlar, qishloqda yashovchi yoshlar, shaharda yashaydigan yoshlar va uyushmagan yoshlar tashkil etadi. Ular bilan munosabatni shakllantirishda mazkur guruhlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan xolda yondashuv zarur. Yoshlar guruhlarining har biri o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ularga alohida yondashuv zarur. Ular jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarga, tarixiy qadriyatlar, milliy an’analarga turlicha munosabatda bo‘lganlari holda ilg‘or yangiliklarni, innovatsiyalarni turlicha qabul qilishadi, Bu tabiiy hol, chunki ularning ongi, ruhiy holati, dunyoqarashlari ham turlicha. Mustaqillik davrida tarbiyalangan yoshlar bilan bugungi zamonaviy yoshlar bir-biridan farq qiladi. Bu yoshlarning jamiyatda shakllangan ijtimoiy munosabatlarga, ularning o‘zgarib borishiga ham munosabatlari turlicha.

Ma’lumki, jamiyat taraqqiyotida obyektiv va subyektiv omillarning o‘zaro mos kelishi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda subyektning, ayniqsa yoshlarning o‘zini yaratuvchi, taraqqiyot ijodkori sifatida his etishi, jamiyatning taraqqiy ettiruvchi kuchi sifatida o‘zini anglashi, dolzarb kasb egasi bo‘lishga, ilmiy faoliyatga intilishi kabilar jamiyat taraqqiyoti dinamikasini belgilab beradi. Bu hodisalar yoshlarda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishni ta’minlaydi. Demak, yoshlarning faol axloqiy pozitsiyasi jamiyat taraqqiyotining ulkan omili bo‘lib xizmat qiladi. Inson kuchi, ongi, intellektual salohiyati jamiyat taraqqiyoti omillarining samaradorligini ta’minlaydi. Jamiyat taraqqiy etib borgani sari inson salohiyati ham ortib boradi. Bu ikki jaryon o‘rtasida dialektik aloqadorlik mavjud. Jamiyatning barqaror taraqqiyoti, kishilar hayotining darajasi, farovonligi inson salohiyatini yanada rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarni olib keladi [5. B. 6–7].

Bundan kelib chiqadiki, jamiyat oldida turgan vazifalardan biri qayd etilgan subyektiv omil imkoniyatlarini to‘g‘ri tashkil etish va yo‘naltirish, ularning salohiyatini yuzaga chiqarish, realizatsiya qilish uchun imkoniyatlar yaratish hamda ulardan to‘g‘ri foydalanishdan iborat.

Barcha jamiyat a’zolarining hozirda kechayotgan davr ruhini anglab yetishi, ularni o‘z ongida to‘g‘ri aks ettira olishi muhim ahamiyatga ega. Chunki shaxsning davr ruhini his eta olishi, davrning shaxs oldiga qo‘yayotgan talablarini to‘g‘ri idrok etishi, ulardan kelib chiqqan holda o‘z hayotini, faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilishi, bu jarayonga mos ravishda ma’lum aksiologik oriyentatsiyani amalga oshirgan holda, dolzarb qadriyatlar asosida o‘z salohiyatini realizatsiya qilishi uning faol axloqiy pozitsiyani tanlashiga ijobiy ta’sir etadi. Bu borada shaxsning fikrlash tarzi va dunyoqarashining to‘g‘ri yo‘naltirilishi, tafakkurining doimo oldinga intilishi jamiyatda o‘zgarishlar va rivojlanishga olib keladi. Jamiyat yoshlarining o‘zini jamiyatning yaratuvchisi, ijodkori sifatida anglashi, mamlakatning, millatning taqdiriga o‘zining daxldorligini his etishi, yoshlarning subyektiv omil sifatida jamiyat taraqqiyotida katta kuch ekanligini anglab yetishi ularning faol pozitsiyasini shakllantirishda muhim ma’naviy-axloqiy hamda psixologik omil bo‘ladi.

Ma’naviyat – iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini harakatga keltiruvchi omillardan biridir. Ma’naviyat iqtisodiyot yuqori taraqqiy etganda yuksaladi. Yuqori ma’naviyatga erishish uchun faoliyatga ijodiy yondashuv, innovatsiyalarni olib kirish talab etiladi. Bunday faoliyat ishlab chiqarishga, o‘qishga, ilmiy faoliyatga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, bu borada tadbirkor-

lik faoliyatiga asoslangan madaniyat muhim rol o‘ynaydi. Tadbirkorlik madaniyati “... jamiyatdagi barcha soha va yo‘nalishlarda muayyan maqsadga, rejalashtirilgan natijaga erishish yo‘lida insonning jismoniy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ma’naviy, aqliy tadbirlar to‘plami va ularni amalga oshirish jarayonidir. Tadbirkorlik madaniyati tadbirkorning bozor iqtisodiyoti muhitini o‘zgaruvchanlik xususiyatiga moslashib, mavjud huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda tashkiliy imkoniyatlardan faoliyati jarayonida samarali foydalanishni anglatadi” [6. B. 14].

O‘zbekistonda tobora taraqqiy etib borayotgan tadbirkorlik faoliyati jamiyatda yangicha axloqiy qadriyatlarni, bu sohada faol bo‘lishga qaratilgan axloqiy elementlarni yanada rivojlantiradi. Yoshlarning ma’lum kasbiy oriyentatsiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yangicha axloqiy qoidalar hamda qadriyatlar tizimining shakllanishiga zamin yaratadi. Jamiyatda yangicha mohiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarning shakllanib, ularni yoshlar qadriyatlar tizimida aks etib borishi, albatta, yoshlarda faol pozitsiyaning shakllanishiga ta’sir etadi. Natijada yoshlar ham o‘z faoliyatiga innovatsion, kreativlik asosida yondasha boshlaydi. Ularning subyektiv omil sifatidagi roli oshib boradi. Ular mamlakatda yangicha faollikka yo‘naltiruvchi qadriyatlarni o‘zlashtiribgina qolmay, ularni yaratishda ham ishtirok etadi. Natijada asta-sekin jamiyatda yaratuvchanlik, faollik muhiti shakllanib boradi.

Hozirgi davrda mamlakatda iqtisodiy sohaning an’anaviy yo‘nalishlari bilan raqobatbardosh bo‘lishi mumkin bo‘lgan yangi sohalarining ham yaratilishi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Asrlardan beri O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotida yetakchi o‘rin egallab kelgan qishloq xo‘jaligi, sanoat sohasida yetishtirilgan xom ashyoni dastlabki qayta ishlashga asoslangan mehnat faoliyati mamlakatimizning raqobatbardoshlik xususiyatini yuqori ko‘tara olmasligi aniq. Bu borada A.Egamberdiyev shunday yozadi: “An’anaviy rivojlanish modellarining o‘rniga innovatsiyalarga, demakki, ilm-fan va ma’rifatga asoslangan jamiyatgina katta sur’atlarda rivojlanishga qodirdir. Iqtisodiyotning an’anaviy sohalari – qishloq xo‘jaligi va sanoat sohasida dunyo bozorida global hukmronlik o‘rnatib bo‘lingan. Endilikda tabiiy resurslarni sarflamasdan intellektual resurslarni ishga solishga qaratilgan – raqamli texnologiyalar, turizm va xizmat ko‘rsatish orqali raqobatda ustun kelish mumkin” [7. B. 50–51]. Olim ta’kidlagan bu vazifalar bevosita mamlakatda oliy ta’lim tizimini zamon talablari asosida taraqqiy ettirish bilan bog‘liq. Demak, oliy ta’lim tizimida zamon ehtiyojlariga javob beradigan yo‘nalishlarni tashkil etish, unda noan’anaviy bilim berish shakllarini ko‘proq joriy etib borish hamda mamlakatda oliy ta’lim tizimini jahonning ilg‘or davlatlarida bu sohada qo‘llanilayotgan tajriba va andozalarga moslashtirish zarur. Bu jarayon qisman bo‘lsa-da yoshlarning ko‘proq xorijiy davlatlarda ta’lim olishga intilishlari va boshqa shu kabi ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Yangi, turli-tuman zamonaviy ehtiyojlarning yuzaga kelishi – progressiv hodisa. U yoshlarni harakatga keltiradi. Yangiliklar ularni faollik tomon yetaklaydi. Ularning faolligi o‘z navbatida jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Natijada yoshlarning o‘zi ham takomillashib boradi [8. B. 27–28].

Yangi O‘zbekistonda inson omilini faollashtirish muammosining to‘g‘ri hal etilishi muhim bo‘lib, bunda faqat iqtisodiy omillar bilan cheklanmaslik, subyektlarning faolligi, to‘g‘ri ehtiyojlarni shakllantirish hamda jamiyat tomonidan insonlarning, ayniqsa, yoshlarning yuzaga kelayotgan ehtiyojlarini muntazam qondirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. ”Fuqarolik jamiyati rivojida iqtisodiy omilning o‘zi kamlik qiladi, albatta. Bu sohadagi yana bir zarurat – inson omilidir. Oliy jamiyat qurish uchun inson, eng avvalo, ehtiyojlarini chuqur anglamog‘i va ularni jamiyatda erkin ro‘yobga chiqarish malakasini egallamog‘i lozim. Zero, bunday jamiyat inson ehtiyojining barcha davrlardagidan ortishi va ularni ro‘yobga chiqarishga “chanqoq”lik ham behad kuchayishiga asoslanadi. Albatta, bunda subyektiv omil bilan birga obyektiv omil, ya’ni inson ehtiyojlari qondirilishi uchun imkoniyat yaratish ham nihoyatda muhim” [9. B. 10].

Jamiyat taraqqiyotining dinamikasi, yuqori sur’atlari yoshlarning jamiyatda amalga oshayotgan obyektiv ijtimoiy hodisalar, jarayonlarga faol munosabatiga bog‘liq bo‘lib, jamiyatning bu sohadagi vazifalaridan biri yoshlarning intellektual salohiyatini saqlab qolish, uni yanada o‘stirish uchun imkoniyatlar yaratish hamda undan to‘g‘ri foydalanish orqali yoshlarning ehtiyojlarini qondirishdan iborat. “Inson omilining samarasi uni to‘g‘ri yo‘naltirishga bog‘liq.

Yoshlar orasidan talantli, bilim olishga intiluvchi, intellektual va madaniy-ma'naviy salohiyatli, faol yetakchilarni izlab topish va tarbiyalash, ularning atrofida islohotlarni va innovatsion jarayonlarni amalga oshiruvchi yadrosini, ya'ni kreativlik, yaratuvchilik, tashabbuskorlik, ijodiy yondashuvchanlik xislatlariga ega bo'lgan zamonaviy milliy kadrlarning yangi avlodini shakllantirish va tarbiyalab yetishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi" [10. B. 28].

Hozirgi davrda O'zbekistonda amalga oshib borayotgan modernizatsiya jarayonlari, innovatsiyalarning kirib kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, tadbirkorlikning rivojlanib borayotgani, xususiy biznesning rivojlanishi kabi tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan voqealar negizida yoshlarning faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish uchun ulkan imkoniyatlar muhiti mavjud. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari, tadbirkorlik, xususiy biznesning kengayib borishi kabilarga asoslangan yangi munosabatlar faol pozitsiyaning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ijtimoiy jarayonda jamoatchilik, jamoa kayfiyati, ruhiyati jamiyat taraqqiyotida ijobiy rol o'ynaydi. Yuqorida qayd etilgan holatlar asta-sekin jamiyatda ham faollik muhitini shakllantirishga olib keladi. Albatta, bu jarayonga jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi asosiy omil sifatida ta'sir etadi. Bu yo'lda yuksak g'oyalar, maqsadlar bilan birlashgan jamoa, ularning birgalikdagi faoliyati vatanga, jamiyatga, millatga xizmat qiladi. Mamlakat taraqqiyoti esa jamiyat a'zolarining, ayniqsa, yoshlarning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar:

1. *Мирзиёев Ш.* Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент:O'zbekiston, 2021. – 464 б.

2. *Назаров Қ.* Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. – Тошкент: Маънавият, 2019. – 920 б.

3. *Миньюшев Ф.И.*Социальная антропология. – Москва: Братья Карич,1997. –192 б.

4. *Парсонс Т*. Система координат действия и общая теория систем действия: культура, личность и место социальных систем / В кн.: Американская социологическая мысль. – Москва: Издательство МГУ, 1994. – С. 462–478.

5. *Xolmirzayev X.N.* Yangi O'zbekistonda inson salohiyati yuksalishining imkoniyatlari va undan foydalanishning istiqbollari // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar, 2023. – № 1 (69). – B. 5–14.

6.*Сайитхонов А.А.*Тадбиркорлик маданиятини ривожлантиришда инновацион фаолиятнинг ижтимоий-фалсафий таҳлили: Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2022.

7. *Эгамбердиев А.А.* Ўзбекистонда олий таълим тизими трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. – Наманган: Usmon Nosir media, 2022. – 208 б.

8. *Бегматов А*. Маънавият таркиби, тузилмаси ва тамойиллари. – Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2017. – 182 б.

9. Элни суяганни эл ҳам суяйди. Сиёсатшунос олим М.Қирғизбоев билан суҳбат // Тафаккур, 2017. – № 1. – Б.10–16.

10. *Юлдашева Ф.* Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари: Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2019. – 187 б.

ON THE ESSENCE OF THE CONCEPT ‘ACTIVE SOCIAL POSITION’

Sanjarbek S.Sodikov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 3(71). 41-48

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: *position, life position, social position, active position, active position of youth.*

The article explains the essence of concepts such as “position”, “vital position”, “social position”, “active position”, which we have encountered many times in recent times, and how important these concepts are in our lives today. It is based on the theoretical and practical significance of the formation of the above concepts, especially in the process of establishing a civil society and building a legal democratic state in the conditions of New Uzbekistan.

The current stage of society’s development requires solving a number of social problems at the same time. One such problem, as mentioned above, is not just educating young people, but forming an active moral position in them. The social position of a person, his place in society, his participation in various socio-economic relations and the level of activity in this process affect the nature of social processes such as reforms, renewal processes, modernization, and the introduction of various innovations. Events (elements) such as a person’s level of consciousness, social consciousness, motives, values, goals, and needs are involved in this. They are related to the conditions of life in which a person lives and works, and lead him to a certain goal.

The formation of a person’s social position is influenced by such phenomena as his upbringing, living conditions, social environment, family culture and values, level of intelligence, intellectual potential, moral, ideological-ethical outlook, lifestyle, the community surrounding him, and the social system in which he operates. In the development of any society, regardless of their age, profession and position in social life, the attitude of its members to social life, socio-economic, political, cultural-spiritual activities and processes in these areas, their role in these processes, their role in society and their own development position is important.

It is known that in the social process, the public, public mood and spirit play a positive role in the development of society. The above situations gradually lead to the formation of an active environment in society. Of course, this process is influenced by the economic development of society as the main factor. Thus, the team, united by lofty ideas and goals, serves the Motherland, society and the nation with its joint activities. And the development of the country strengthens the confidence of members of society, especially young people, in the future.

There are modernization processes currently taking place in Uzbekistan, the introduction of innovations, reforms in the socio-economic, political, cultural and spiritual spheres, the development of entrepreneurship, the development of private business, etc. Of great importance in the formation of an active position are new relations based on market relations, entrepreneurship, the expansion of private business, etc.

References:

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2021) *Yangi O‘zbekiston strategiyasi* [New Uzbekistan strategy]. Tashkent: O‘zbekiston.

2. Nazarov, Q. (2019). *Jahon falsafasi qomusi* [Encyclopedia of World Philosophy. A-H]. Book 1. Tashkent: Ma’naviyat.

3. Minyushev, F.I. (1997) *Socialnaya antropologiya* [Social anthropology]. Moscow: Bratya Karich.

4. Parsons, T. (1994) Sistema koordinat dejstviya i obshchaya teoriya system dejstviya: kultura, lichnost i mesto socialnyh sistem [Systemof coordinates of action andgeneral action theorey of system of actions: culture, personality and place of social systems]. In: *Amerikanskaya sociologicheskaya mysl* [American sociological thought]. Moscow: Izdatelstvo MGU. Pp. 462-478.

5. Xolmirzayev, X.N. (2023) Yangi O‘zbekistonda inson salohiyati yuksalishining imkoniyatlari va undan foydalanishning istiqbollari [Possibilities of increase of human capacity in the New Uzbekistan and prospects of its use]. *Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar*. 1(69). Pp. 5–14.

6. Sayitkhanov, A.A. (2022) *Tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirishda innovatsion faoliyatning ijtimoiy-falsafiy tahlili* [Socio-philosophical analysis of innovative activity in the development of entrepreneurial culture]. Abstract of Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy Sciences. Fergana.

7. Egamberdiev, A.A. (2022) *O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili* [Socio-philosophical analysis of the transformation of the higher education system in Uzbekistan]. Namangan: Usmon Nosir media.

8. Begmatov, A. (2017) *Ma’naviyat tarkibi, tuzilmasi va tamoyillari* [Composicion of spirituality, structure and principles].Tashkent: Fan va texnologiyalar.

9. Qirg‘izboyev, M.(2017) *Elni suyaganni el ham suyaydi* [He who leans on the hand will be supported by the hand]. *Tafakkur.* 1. Pp. 10-16.

10.Yuldasheva, F. (2019) *O‘zbekistonda globallashuv sharoitida ma’naviy yangilanishning o‘ziga xos xususiyatlari* [Peculiarities of spiritual renewal in the conditions of globalization in Uzbekistan]. The Dissertation for Doctor of Philosophy Sciences (DSc). Tashkent.

Muallif haqida ma’lumot:

SODIQOV Sanjarbek Subxoniddin o‘g‘li – Andijon davlat universiteti Falsafa kafedrasi doktoranti.E-mail:sanisodiqov029@gmail.com